



1991-yildan  
choga bosqichiga

2021-yil, 8-sent

ISSN 2018-5584

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

UZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAMO TIZOJ UZBEKISTON  
ILMIY-METHODIK JURNALI

Я | ПРЕПОДАВАНИЕ  
РИКИ И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
ЯЗЫКИ | ПОДГОТОВКА К ВЫСШЕМУ ИСКУССТВУ  
И ПРОФЕССИОНУЮ КАРЬЕРУ

УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ПОСОБИЕ ДЛЯ УЧЕБНЫХ КЛУБОВ



Ushbu sonda



English version

Masullik nomi  
 ответственный редактор

25-mln



Russian version

Masullik nomi  
ответственный редактор

7-mln



Eng-ru moliyaviy  
издание для  
учебных клубов

2-mln  
2-mln  
2-mln

13-mln



Eng-ru moliyaviy  
издание для  
учебных клубов

2-mln  
2-mln  
2-mln

27-mln



Eng-ru moliyaviy  
издание для  
учебных клубов

2-mln  
2-mln  
2-mln

10-mln



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 8-son.

### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV

Dilshod KENJAYEV

Qozoqboy YO'LDSOSHEV

Nizomiddin MAHMUDOV

Nargiza RAHMONQULOVA

Yorqinjon ODILOV

Mamatqul JO'RAYEV

Nasirullo MIRKURBANOV

Jabbor ESHONQULOV

Valijon QODIROV

Baxtiyor DANIYAROV

Abdurahim NOSIROV

Tolib ENAZAROV

Ravshan JOMONOV

Zulkumor MIRZAYEVA

Nilufar NAMOZOVA

Lutfullo JO'RAYEV

(bosh muharrir o'rinnbosari)

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA

Nigora URALOVA

Yuliya MUSURMANOVA

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi

32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirish bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazzalar bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.25.08.da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Sharcli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturası. 10, 11 kegl. «PRESS-PRINT» bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent vil., Yuqori Chirchiq tum., Yik-ota, Oqibat ko'chasi 50-uy. Buyurtma — Adadi 3420 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
XALQ TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG  
İLMİY-METODİK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

## LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### MUNDARIJA

#### DOLZARB MAVZU

Rahimboy JUMANIYOZOV. Mamlakatning poydon va ustuvor g'oyasi .....	3
Ravshan JOMONOVA. Yumshatish (б) belgili so'zlar transliteratsiyasi: muammo va yechimlar.....	4

#### MULOHAZA

Qayum BAYMIROV. Renessans: til va tafakkur uyg'unligi .....	6
---	---

#### METODIK TAVSIYA

Dilbar NORMURODOVA. Husnixat va yozma savodxonlikka qanday erishish mumkin?.....	7
Mahfuzha AHMADJONOVA. Kaizen – doimiy takomillashev yo'lli .....	8
Maxfurat OTAYEVA. Mumtoz asarlar matni ustida ishlash .....	10

#### ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Alisher G'AFFOROV. Mashg'ulotda ta'lim texnologiyalaridan foydalanan .....	11
Iroda MIRZAEVA. Learning styles and strategy-based instruction .....	13
G'anisher JO'RAYEV. Xorijiy tilini o'qitishda axborot texnologiyalarining ahamiyati .....	14
Guzel TURAEVA. Using mind-mapping technology in Uzbekistan as a foreign language teaching .....	15

#### TAHLIL

Manzar ABDULKAYR. Toza dog' atrofida .....	17
Gulbahor ERNAZAROVA. Asqar Mahkamning "Tavajjuh" dostoni badiiyati .....	19
Shohista MAHMUDOVA. Muallif va badiiy asar munosabati .....	21
Ziyoda RAJABOVA. O'quv frazeologik lug'ati korpusi va uning turlari .....	23
Nigora ERKINOVA. Ona va farzandlar munosabatlarining badiiy talqini .....	25

#### TADQIQOTLAR

Kamola MUSULMONOVA. Lingvistik ekspertizaning umumiy metodlari .....	26
Nigora PARDAYEVA. Shoira Anbar Otining ijodkor nabirasi va uning asarini bilasizmi? .....	29

#### KICHIK TADQIQOTLAR

Shohruh ABDIRAIMOV. O'qib tushunish malakasini baholash usullari .....	31
Umida TO'RAYEVA. Tilshunoslikda terminologiya va termin tushunchalari .....	33
Davronbek ORIPOV. Islom shoir va Narpay dostonchilik maktabi .....	34
Dilfuza HAMROJOVA. Xalq qo'shiqlarida inson tana a'zolarining badiiy talqini .....	36
Lola AZIMOVA. O'zbek adabiyotida Islom dini targ'iboti badiiy ifodalangan asarlar .....	37
Munira ISOMIDDINOVA. Globallahuv jarayonida turizm rivoji va sayoyohlik jurnalistikasi .....	39
Nodira MIRHAYDAROVA. O'zbek tilidagi "ma'naviyat" kategoriyasining iyerarxik va ideografik xususiyatlari .....	40
O'g'iloy XODJIMURATOVA. Diplomatik xatlarining janr va til xususiyatlari .....	42
Bahrom UMAROV. Qayta aloqa interfaol o'quv mashg'ulotining majburiy komponenti sifatida .....	44
Dilshod DURAYEV. Xitoy tilida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishda loyiha metodidan foydalish .....	45
Kamola AKHMEDDOVA. Lingua-pragmatic analysis related to the age and gender features of reference words in Uzbek and English stories .....	47

#### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Tolib KELDIIEV. Sistema rabiya nad prawopisaniem -и и -и-ni v razlichnykh chastej rechi .....	49
Saiyera IBRAGIMOVA. Sovremenstvovanie gramotnosti obuchayushchixya na zanyatiyah po russkomu yazyku kak inostrannomu .....	51

#### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Anna KURCHASTOVA. O neobkhodimosti vklucheniya sovremennoi literatury v shkol'nuyu programmu starikh klassov .....	54
Dildora TOLIPOVA. Rol' khudozhestvennogo teksta v prepodavaniye russkogo yazyka kak inostrannogo .....	55

#### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Julia TIN'KOVA. Dusha i muzika edinyi .....	57
Dilyanova MARUPOVA. Pushkinskie motivyi i elementyi v tvorchestve I.A.Goncharova .....	58
RAB'NO KAZAKOVA. Poetika i stil' russkih i angliyskih vol'shiebnykh skazok v sopolostvitel'nym aspekte .....	60
Zhamina BURANOVA. Elementy mifologizma v proizvedeniiakh uzbekskix pisateley .....	62
Diliyfruz DONAKULOVA. Balladnoe tvorchestvo A.C.Pushkina .....	64
Ilinna SIDDKOVA. Prostranstvennye arkhitypi v roman'e F.Iskandera «Sandro iz Chegema» .....	66

#### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Nemat SABIROV. Putevye zamechki i putevye zapiski kak forma evoliutsii palomnichestva i svetskogo literaturnego puteshestviya .....	70
Nargiza MADAMINOVA, Ol'ga SHEWZOVA. Vklad uchenykh v razvitiye russkogo slovoobrazovaniya kak otdelnoy o'trasslii zalykoznaniya .....	73
Vasiliakhon GIESOVA. Klassifikatsiya skazok o zhivotnykh po ikh strukturno-semanticheskemu priзнакu .....	74

#### ПОЛЕМИКА

Sanzhat IBRAGIMOV, Moxinur IBRAGIMOVA. Soderzhatel'nyy aspekt soziokultuurnoy kompetencii .....	78
---	----

#### ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Tatyana SHORINA, Monika SHARIEVA, Zulkmuroz ISAKJANOVA. Metapredmetnyy i kulturologicheskiy podkhody v uchenike 5-go klassa po russkому yazyku kak inostrannomu dla Uzbekistana .....	79
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.	



**Manzar ABDULXAYR,**  
filologiya fanlari doktori

## TOZA DOG' ATROFIDA...

Hazrat Alisher Navoiyning aksar g'azallari zamidagi botiniy ishq jarayoni qanchalik kamol topgani sari uning qatida rango-rang suratlar partavlana boradi. Aslida, mumtoz adabiyotda ishq besurat ham tasavvur etilaveradi: "...Ishq suratsiz nechun tasavvur etilmassis?.. Hatto suratni ishq maydonga keltirdi va undan yuz minglab surat hosil bo'ldi. Bular ayni zamonda ro'yobga chiqqan, shakl-u shamoyil olgan suratlardir". [1: 129] Ulug' shoир asarlaridagi bunday g'azallar zohiriya va botiniy badiiy kayfiyat uyg'unligining mahsuli bo'lib, ularning aksari "hasbi hol" ruhida yozilgan. Albatte, botiniy ishq Xoliq va Uning bandasi haqiqatini kashf etishi barobarida, xoh o'z davri voqealari, xoh moziy saboqlari misolida bo'lsin, ularga uyg'un tarzda kamol topadi. Ularning hech birini bir-biridan ayro tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ko'rindiki, botiniy ishq dardi chek-chegarasizdir. Chunki shoир umrining so'ngi yillarida yozilgan asarlarida ham bu tavr mujassam: "Yana "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") devoni, uni hayot oxirida zamirim xomasi – xayolim qalami Chin rassomi ustaxonasining hasadi va jannat rashki keladigan qilibdiki, unda kattalarga foydalarning toza suvini yetkazibman va havaslari shu'lasiga nasihatlar suvidan suv uribman..."

Endi ana shunday g'azallar sirasiga kiruvchi "Favoyid ul-kibar"ning 343-g'azalini to'la keltiramiz:

*Toza dog' atrofida jismimda tim-tim qon ko'rung,  
Dard-u g'am tog'ida, vah-vah, lolayi No'mon ko'rung.  
Nafy qilg'anlar qurug' jismim halok-u za'fini,  
Tang'a ko'nglumdin tiralgan har taraf paykon ko'rung.  
Xalq yig'lab tufrog'im boshida yuz hasrat bila,  
O'qlarin har yon tanim omochida xandon ko'rung.  
G'am tuni yummas ko'zum davrinda kiprik xaylini  
Saf chekib, ko'zning qarorg'an holig'a hayron ko'rung.  
Ishqin etkanlar havas, iynak bu tuhmatdan meni,  
Bog'lanib bo'ynum fano bozorida, uryon ko'rung.  
Charx bahri naqdini qilg'an tamanno zarralar,  
Mehr g'avvosin bu igrim ichra sargardon ko'rung.  
O'qlaridindur Navoiy jismi mehnat gulbuni,  
Gullar iynak toza qonlig' dog'idin har yon ko'rung.*

[2: 343]

Ushbu yetti baytli g'azal zamirida botiniy ishq bag'rida mehr pinhon. Buni g'azal botinidagi purma'no ramzlar inkishofisiz tushunish mushkul. Illo, kishi ishq bois chinakam ma'naviy hayot zavqini, aniqrog'i, ijod shavqini his qiladi. Endi baytlar sharhiga o'taylik.

*Toza dog' atrofida jismimda tim-tim qon ko'rung,  
Dard-u g'am tog'ida, vah-vah, lolayi No'mon ko'rung.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda "dog" so'zi "kuyuk", "kuygan joy"; "qoralik"; "qizdirilgan temir bilan inson yoki hayvonlar tanasiga bosilgan belgi", "nishon", "naqsh", "iz", "jarohat" va "g'am-anduh", "qayg'u-alam" singari ma'nolarda keladi. "Tim" so'zi esa, "tomchi", "qatra", "katta karvonsaroy", "usti yopilgan bozor", "rasta"; "g'am", "anduh" singari ma'nolarda keladi. Baytda esa, "dog" va "tim" so'zlarini badiiy ma'no olamidagi cheksizlik jarayoni sari qo'llanilgan tushunchalar deyish mumkin. Birinchi misra hasbi hol ruhida yozilgan bo'lib, mazmuni quyidagicha: jismimdag'i yangi jarohat atrofida paydo bo'lgan qatra-qatra qonni ko'ring. Bu xuddi dard-u g'am, ya'ni go'yo g'am tog'i tevaragidagi lolayi No'mon (qizil lola)ga o'xshaydi. Matla'ning botiniy ma'nosi esa quyidagicha: chuqur qayg'ular bois ko'nglimda g'am-anduh usti yopiq bozordagi shovqin misoli harakatlanadi. Bu xuddi go'yo asrlar davomida shakllangan dard-u g'am tog'ining oh-nolalari tufayli unda paydo bo'lgan qizil lola a'moliga mengzashdir. Naqadar g'aroyib tashbih! Bu matla'da shoirning bag'oyat bir ichki sukuti hukm surib, bu tarz uning butun mazmun-mohiyatini, aniqrog'i, chin oshiqning botiniy ahvoli ruhiyasini yaqqol namoyon qiladi. Ammo ushbu baytda tajohul ul-orif san'ati qo'llanilganligini hisobga oladigan bo'lsak, uning zamirida yana bir boshqa ma'no ham borligi ma'lum bo'ladi. Atoulloh Husayniyning yozishicha: "Tajohul ul-orif" andin iborat-turkim, so'zlaguchi bir nimani bilur, ammo bir nukta bila o'zni bilmagandek ko'rsatur. "Miftoh" sohibi bu san'atni suqu-ma'lum masoqa g'ayrih, ya'ni ma'lum so'zni noma'lum o'rnida yurutmak deb ataptur va depturkim, men bu san'atni tajohul deb atamoqni sevmasmen, sabab uldurkim, Tengri taolonning kalominda voqe' bo'lup-tur, Alloh taboraka taolo deput: inna av iyyakum la'al hudan av fi zalalin mubin, ya'ni haqiqatta biz yo siz har holda to'g'ri yo'ldamiz yo yo'ldan ochiq ozg'anmiz. Bu oyattag'i ma'lumni noma'lum yo'l bila ifoda etkan nukta kufr ahlig'a arz etilmishtur". [3: 132] Ya'ni baytda "dog" va "tim" so'zlar "lolayi No'mon" orgali o'zaro bog'lanadi. Mumtoz adabiyotda "No'mon" turlichal talqin etilgan: masalan, arablardagi Toif shahri yaqinidagi daryoning nomi deb ham faraz qilingan. Lekin forsiy lug'at manbalarga ko'ra, "No'mon" podshoh bo'lib, u aslida tog'dan lola keltirib, parvarish qilgani uchun unga "lolayi No'mon" degan nisbat berilgan. [4: 603] Haqiqatan ham, o'tmishta shunday nisbatli shaxs bo'lgan. Tarixiy manbada qayd etilishicha, bu tarz shunday ramziy tus oladi: Ajam mulkida Yazdijird Binni Bahrom degan bir

zolim podshoh bo'lib, u 8 yil deganda bir o'g'il farzand ko'radi, lekin negadir o'g'lini o'sha podshoh No'mon binni Munzirga topshiradi. No'mon uning o'g'lini, ya'ni Bahromni xuddi tog' lolasi singari xushhavo yerdarda yaxshi tarbiya qilgan. Keyinchalik, aniqrog'i, otasi va-fotidan so'ng, Bahrom No'mon yordamida zolim otasi podshohligini qo'liga kiritadi. U otasi buzgan ishlarni tuzadi va mamlakatda adolat o'mnatadi... [5: 234–235] Shoir umidicha, Husayn Boyqaro ham go'yo shunday yo'l tutganda edi, balki uning mamlakati kelajagi ham ana o'shanday toza buloq suvini ichib ungan tog' lolasidek qobil farzand qo'liga o'tgan bo'lar edi. Ehtimolki shundandir, ulug' shoir ushbu g'azalni bitayotganda uning taxayyuli bir muddat "Majolis un-nafois"ning 8-majlisida shoh va shoir Husayn Boyqaro g'azallaridagi c'zi sharhlagan bir bayt tahllili sari o'rashgan bo'lsa, ne ajab: "Manzurning labi tabassumini va o'zini qonalg'on dog'ini g'unchayi xandon va lolayi No'mong'a tashbih qilibdur va ma'nisi she'r sanoye'idin "tajohul ul-orif" uslubida xush voqe' bo'lubtur: [6: 183]

*Ayladi la'li tabassum, g'unchayi xandon emas,  
Dog'ini ko'nglum qonatti, lolayi No'mon emas.*

Bu san'at ishtirokidagi g'azalning birinchi baytida hayrat izhor qilinsa, ikkinchi baytida madh mubolag'asi, uchinchi baytida zam, ya'ni jamlash yoki tashbih, to'rtinchi baytida hamranglik yoki malomat va qolgan baytlarida ham ana shunday xususiyatlar ifodalanadi:

*Nafy qilg'anlar qurug' jismim halok-u za'fini,  
Tang'a ko'nglumdin tiralgan har taraf paykon ko'rung.*

Baytning qisqacha mazmuni: ey rad qiluvchilar ahli, agar qurigan jismimning zaiflashishi yoki fano bo'lishini ko'rmoqchi bo'lsangiz, har tarafdan tanamga tiralib turgan kamon o'qlariga boqing.

*Xalq yig'lab tufrog'im boshida yuz hasrat bila,  
O'qlarin har yon tanim omochida xandon ko'rung.*

Baytning muxtasar mazmuni: xalq bu olamdan o'tganidan so'ng tuprog'im boshida yuz hasrat bilan yig'laydi. Aslida, ko'ksim go'yo azaldan o'q otib mashq qilish uchun bir nishon bo'lganligini bilishgach, ya'ni har tarafdan ko'ksimga yo'naltirilgan o'qlarni ko'rishgach, xandon otib kulishadi.

*G'am tuni yummas ko'zum davrinda kiprik xaylini  
Saf chekib, ko'zning qarorg'an holig'a hayron ko'rung.*

Baytning umumi ma'nosi shunday badiiy tafakkurni taqozo qiladi: anduh tuni, ya'ni ko'nglim o'sha g'amga botgan qorong'u tunda go'yo ko'zim tevaragidagi mijgon guruhlari bu ahvolimdan ogohligi bois mijja qoqmadim. Shunda ular, ya'ni kipriklar to'dasi go'yo askarlardek saf tortib, g'amdan qorayib toraygan ko'zimning bu mahzun holatiga lol-u hayron boqishdi.

*Ishqin etkanlar havas, iynak bu tuhmatdan meni,  
Bog'lanib bo'ynum fano bozorida, uryon ko'rung.*

Bunda Navoiy shunday badiiy tafakkurni ilgari suradi: yor ishqini havas etganlar shu ishq bois, ya'ni zimmamdag'i ana shu og'ir savdo tufayli meni fano bozori ko'yida ilojsiz, imkonsiz xoli qolganligimi ko'rib taajjublandilar. Yoki: ma'shuqa ishqini havas etganlar shu ishq bois, mening gardanim fano bozorida ilojsiz, imkonsiz yalang'och qolganligini ko'rib qattiq taajjublandilar.

*Charx bahri naqdini qilg'an tamanno zarralar,  
Mehr g'avvosin bu igrim ichra sargardon ko'rung.*

Baytning umumi mazmuni: aslida, davron qimmat-baho xazinalarga to'la dengiz ashyolarini orzu qilganligiga sabab zarralar – nurlardir. Agar ana shu nurlar dengizni yoritmaganida edi, kishilar bu go'zallik sirlaridan voqif bo'lmas edilar. Uni orzu qilishga hojat qolmas edi. Mehr g'avvozi, ya'ni suv ichiga sho'ng'igan yoki balqigan quyoshning o'zi esa, go'yo hech narsadan bexabardek, bu girdob ichida sarson-sargardon bo'lib yurganini ko'ring.

*O'qlaridindur Navoiy jismi mehnat gulbuni,  
Gullar iynak toza qonlig' dog'idin har yon ko'rung.*

Maqta'ning qisqacha ma'nosi: o'sha o'qlardan Navoiy jismi go'yo dard gullariga aylandi. Buning bari, ya'ni shu umid gullarining unib-o'sishi xuddi shunday bag'oyat darajada pokiza qonlik sirli dog' tufaylidir.

Umuman, g'azal, xususan, undagi ishq va surat obrazlari zamiridagi botiniy tuyg'u va timsollarning benazir-u betakrorligi kishini hayratga soladi. U botinan ishq ma'nolariga boyligi, suratan esa, ishq yo'lida be-timsol qiyosiylikni o'zida jo etgan go'zal badiiy tafakkur jarayoni sifatida Hazrat g'azaliyotida muhim o'r'in tutadi. Bu g'azal kitobxon tasavvurida ishqni surat-u sur'atlantiradi va uning tafakkur tarzida yangicha bir evrilish paydo qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadur. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. To'la asarlar to'plami. IV jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2013.
3. Husayni A. Badoye' us-sanoye'/Tarjima, izoh va sharhlar muallifi Alibek Rustamov. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1981.
4. Farhangi zaboni tochiki (az asri X to ibtidoi asri XX). I jild. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969.
5. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. Mukammal asarlar to'plami. XVI jild. – Toshkent: Fan, 2000.
6. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. XIII jild. – Toshkent: Fan, 1997.